

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova	
Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari	144
M.O.Gopirov	
Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США	148
Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev	
Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati	153
K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha)	157
O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova	
Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash.....	167
A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov	
Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari	172
D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida)	180
E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova	
Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlarini	186
Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojiddinov, X.I.Saidova	
Yer resurslarini majmualari tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati.....	190
N.O'.Komilova	
Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari.....	195
Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov	
Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati.....	199
Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva	
Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri.....	206
O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova	
Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlarini.....	212
M.M.Atajonov	
Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari	217
A.A.Isayev, S.A.Ergashev	
Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikilli ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish	220
M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova	
Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlarini	224
D.M.Abduraxmonov	
Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	230
D.B.Kosimov	
Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari	234
H.N.Naimov	
Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida)	239
M.H.Otamirzayeva	
Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar	243
U.Sh.Uktamov	
Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari.....	248
S.M.Xudoyberdiyeva	
Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni.....	252
T.D.Komilova	
Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish	257

GEOGRAFIK TERMINLARNING TABIATNI MUHOFAZA QILISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ОХРАНЕ ПРИРОДЫ

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF GEOGRAPHICAL TERMS IN NATURE CONSERVATION

Ahmadaliyev Yusufjon Ismoilovich¹¹Farg'ona davlat universiteti, geografiya kafedrası professori, g.f.d., professorOtaqulov Poziljon Sobirovich²²Farg'ona davlat universiteti, geografiya kafedrası dotsenti v.b., g.f.f.d. PhDMadraximov Ablazbek Erkinjon o'g'li³³Farg'ona davlat universitetitayanch doktoranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada geografik terminlarning tabiatdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilishdagi o'rne va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, toponimlarning kishilarda tabiiy resurslarga nisbatan egalik hissini shakllantiruvchi va ularni muhofaza qilishga yordamlashuvchi guruhları ajratilgan.

Аннотация

В данной статье описывается роль и значение географических терминов в рациональном использовании природы, ее охране. Также выделена группы топонимов, которые формируют у людей чувство собственности на природные ресурсы и помогают их охранять.

Abstract

This article describes the role and importance of geographical terms in the rational use of nature, its protection. Also, there are groups of toponyms that form people's sense of ownership of natural resources and help protect them.

Kalit so'zlar: geografik termin, tushuncha, geografik indikator, toponimik negiz, ekologik toponim, ekologik geokonsept, etimologiya.

Ключевые слова: географический термин, понятие, географический индикатор, топонимическая основа, экологический топоним, экологическая геоконцепт, этимология.

Key words: geographical term, concept, geographical indicator, toponymic basis, ecological toponym, ecological geosconcept, etymology.

KIRISH

Toponimik adabiyotlarda umumiy nom bilan geografik terminlar deb ataladigan tushunchalar mahalliy geografik terminlar, xalq geografik terminlari, geografik nominantlar, geografik nomenklatura, geografik determinatlar, geografik indikatorlar, toponimik negizlar, landshaft leksikasi kabi nomlar bilan yuritilishi kuzatiladi. Toponim va geografik nom atoqli otlarni eng takomillashgan turi bo'lib, ular tarkibida ko'pincha toponim yasovchi mustaqil so'zlar, yuqorida ta'kidlanganidek geografik terminlar qatnashadi. Albatta ularning vazifasi toponim yoki geografik nomning qanday geografik obyektning nomi ekanligin bildirib turishdir. Mamlakatimizda S.Qorayev [1.] tomonidan tuzilgan lug'atlarda bugungi kunda o'zbek tilida mavjud bo'lgan uch mingdan ortiq toponim hosil qiluvchi termin va so'zlar jamlangan bo'lsa, E.Murzayev tomonidan tuzilgan lug'atda o'n mingdan ziyod geografik terminlar jamlangan [2].

Geografik nomlar etimologiyasini aniqlashda geografik terminlarning ahamiyatiga e'tibor qaratib, E.Murzayev shunday yozgan edi: «har qanday toponomik tadqiqot geografik terminlarni o'rganishdan boshlanishi kerak. Geografik nomlarning etimologiyasini tahlil qilishda terminlar bilimdon qo'lida bebaho xazinadir» [3. 214-b]. Bundan ko'rinib turibdiki, geografik nomlarning nafaqat ma'nosini aniqlashda, balki undan anglashiladigan ijtimoiy-ekologik hususiyatlarini o'rganishda ham geografik terminlarni alohida o'rne bor.

Ko'p hollarda mahalliy aholi o'zlari yashaydigan joydagi biron tabiiy hodisa va jarayonlarni geografik termin bilan ifoda etadi, shuning uchun ham geografik nomlar tarkibida geografik termin va iboralar ko'p uchraydi. Ular murakkab geografik nomlarning tarkibiy qismi hisoblanib, toponimlarning asosini tashkil etadi. Mahalliy geografik terminlarni bilmasdan turib biron bir mintaqadagi joy nomlari etimologiyasini ochib berish, joyning tabiiy-ijtimoiy xususiyatlarini aniqlash

mumkin emas. Geografik terminlarni yig'ish va tartibga solish ancha mashaqqatli ish, biroq geografik terminlarni o'rganmaslik toponimika sohasida asosli fikr aytish qiyin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mutaxassislarining aniqlashicha, hind-yevropa tillariga qaraganda turkiy tillarda ko'pchilik toponimlar mahalliy geografik terminlar ishtirokida paydo bo'lgan. Buni biz, turkiy xalqlarning yashash tarzi bevosita ularni o'rab turgan tabiat bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi bilan izohlaymiz. Bu haqida fikr bildirib A.V.Superanskaya bizning mintaqamiz uchun ahamiyatli bo'lgan yana bir jihatga e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi. Bu nom beruvchi xalqlarning o'troq yoki ko'chmanchi turmush tarziga ega ekanligidir, chunki ular bir xil obyektga turlicha qarashlarini e'tiborga olish lozim [4. 82-6.].

Geografik terminlarning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishdagi o'rni hamda ahamiyatini ochib berish uchun dastlab, geografik terminlarning asosiy funksiyasi, ya'ni toponim hosil qiluvchi funksiyasi bo'yicha tasnifi batafsil o'rganildi. S.Qorayev [1] geografik terminlarning yuqoridagi tamoyil bo'yicha oltita turlarini ajratadi. Mazkur tadqiqot maqsadidan kelib chiqib ularni uchta guruhga bo'lishni taklif qildik: 1) tabiatdan oqilona foydalanishga ko'maklashuvchi; 2) foydalanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy jarayonlar va tabiiy ofatlar haqida darak beruvchi; 3) tabiiy resurslarga egalik hissini shakllantirib, uni muhofaza qilishga yordamlashuvchi geografik terminlar. Ularning keyingi tadqiqotlarda ham qo'llanilishini hisobga olib yuqoridagi tartibda keltirib o'tamiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kishilarga tabiatdan oqilona, unga zarar yetkazmasdan foydalanishga (moslashishga) ko'maklashuvchi guruhga hududning **tabiiy geografik xususiyatlarini ifodalaydigan geografik terminlar kiritiladi**. Ular o'z navbatida hududning landshafti (dasht, bo'z, bo'ktar, dara, yetimtog', yovon, yoz, yoyilma, sayxon, sangzor, kungay, chim, qir, gaza, yaylov, yayloq...), relyefi (tog', tepa, adir, dovon, supaungur,...), o'simlik va hayvonlari (bo'ri, olcha, ot, terak, tol, to'qay o'rik, chinor,...), suvliklari (anhor, arashon, ariq, arna, badoq, buloq, bo'g'iz, daryo, dam, daxana, duob, jo'y, zovur, kechuv, ko'l, nahr, obdon, ovloq, oqsuv, sardoba, soy, to'rtko'l, chashma, sharshara, shovva, o'zan, qayir, qapchig'oy, qashqa, qorasuv,...) haqidagi ma'lumotlar (informatsiya)ni o'zida mujassamlaydigan kichik guruhlariga bo'lish mumkin.

Mintaqadagi geografik terminlarni o'rganib, ularda bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy-ekologik xavf-xatar va tabiatdan foydalanishni qiyinlashtiruvchi omillar haqida ham batafsil ma'lumot olish mumkin. Vodiyning markaziy qismlarini o'zlashtirishda ko'chmanchi qum barxanlari bilan bog'liq muammolar ko'p kuzatilgan. Shuning uchun darak beruvchi nomlar Markaziy Farg'onada keng tarqalgan. Jumladan, Bo'riqum (Dang'ara tumani), Oqqum (Mingbuloq tumani), Qoraqum (Buvayda tumani), Qum (Yozyovon, Buvayda, Shahrixon, Uchko'prik tumanlarida), Qumbosti (Uchko'prik tumani), Qumqishloq (Beshariq, Dang'ara, Qo'shtepa, Toshloq tumanlarida), Qumtepa (Qo'shtepa, Baliqchi tumanlarida), Qumqiyali (Dang'ara tumani), Qummozor (Buvayda tumani). Bu nomlar aholi maskanlarida qumli massivlar hududning o'zlashtirishni qiyinlashtiruvchi omil ekanligidan darak bergan. Ekin va daraxt turlarini tanlashda mazkur xususiyat birinchi navbatda hisobga olingan.

Tabiatdan foydalanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy jarayonlar, tabiiy ofatlar haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlaydigan geografik terminlarga adir, bo'z, bo'ktar, dara, dam, jar, yar, yor, zax, reg, taqir, tagob, sho'r, kamar, ko'lob, sel, qal'a, chim, qiya, qaqir, qum, qoq kabilarni kiritish mumkin. Dastlab joyning xo'jalikda (asosan dehqonchilikda) foydalanishga yaroqli ekani, foydalanishga to'sqinlik qiluvchi salbiy xususiyatlari geografik nomlar va terminlar orqali ham o'rganilgan, chunki nom qo'yish davrida mavjud bo'lgan to'siqlar keyinchalik yo'q bo'lgan bo'lishi mumkin, lekin bu yashirin holat nomda saqlanib qoladi. Misol uchun, Sho'rqishloq hududida. Farg'ona vodiysida bunday terminlardan dasht, yovon, yoz (i), jar (yor), zax, ko'lob, sel, sang, tagob, taqir, sho'r kabi joyning xususiyatini aks ettiruvchi terminlar ishtirokida yasalagan joy nomlarini kiritish mumkin. Bunday terminlarning ekologik ahamiyati shundan iboratki, ular tuproqning sho'rlanishini, yer osti suvlarining yer betiga yaqinligini, hududning yer usti tuzilishi haqidagi axborotni nom orqali u yerdan foydalanuvchilarga yetkazib beradi.

Relyefi tepa bo'lgan, bu termin asosida nom berilgan joylarda, yer osti suvlarining chuqurda bo'lishi, yerning zaxlash xavfi kamligi kabi xususiyatlar yashirinadi. Relyefning qiyaligi jarlanish, sho'rlanish, eroziyani va sel kelish havfini yuzaga keltirsa, relyefning quyi qismida joylashgan hududlarda yer osti suvlarining ko'tarilishi, botqoqlashishi kabi salbiy holatlar ko'proq kuzatiladi. Yuqoridagi holatlarni xalqimiz joy nomlarini mavjud relyefga moslab qo'yish orqali nomning ekologik funksiyasini hosil qilishgan. Joyga nom u joy kishilari tomonidan o'zlashtirilgandan so'ng

qo'yiladi. Antropogen ta'sir oqibatida har qanday salbiy ekologik o'zgarishlar yuz berishi mumkinligi haqidagi ma'lumot nom orqali keyingi avlodlarga yetkazib beriladi.

Vodiyda hududning jarlik ekanligini yoki jarlanish xavfi yuqoriligi haqida darak beruchi Jamanjar (O'zbekiston tumani), Jarqishloq (Beshariq, Dang'ara, Toshloq tumanlari), Yorqishloq (Jalaquduq, Chust tumanlari), Jar tepa (Baliqchi tumani), Yortepa (To'raqo'rg'on tumani), Yorboshi (Buloqboshi, Uychi, Andijon tumanlari), Keskanyor (Chortoq, Uychi tumanlari) kabi qishloq va mahalla nomlarida jar termini toponim xosil qiladi. Dexqonchilikda ahamiyatli bo'lgan jarayonlardan tuproqning sho'rlanishi bilan bog'liq bo'lgan joy nomlariga Sho'r (Uchko'prik, Baliqchi, Buvayda, Beshariq, Furqat tumanlari), Sho'rqishloq (Buvayda, O'zbekiston, Bog'dod, Toshloq, Namangan, Asaka, Marhamat tumanlari), Sho'rqaqir (Marhamat tumani)larni kiritish mumkin. Xududning geologik sharoiti haqida ma'lumot beruvchi nomlarga Sho'rsuv, Sho'rtepa (Buvayda tumanida), Tagob (O'zbekiston tumani) kabi nomlar misol bo'ladi.

Vodiyning Asaka, Quva, Toshloq, Uchko'prik, O'zbekiston tumanlarida Qaqir termini qatnashgan qishloqlar bor. Shuningdek Dahanaqaqir, Oyimchaqaqir, Qizilqaqir, Chekqaqir degan qishloqlar ham bor. Shuningdek Qirg'izistonda ham Qaqir degan joylar mavjud. Qaqir - «suv yetib bormaydigan, qaqrab yotgan yer» degan ma'noni anglatadi. Geografik terminlardan mazkur tuproq-ekologik sharoitda o'sadigan o'simliklar haqidagi ma'lumotni ham nomlardan olish mumkin. Bu hududlarda Jiyda, Jiydali (Dang'ara tumani), Jiydaqishloq (Mingbuloq tumani), Qorajiyda (Qo'shtepa tumani), Chorbog'turong'i (Beshariq tumani) kabi nomlar bu xududlarda yaxshi o'sadigan daraxtlar xaqida ma'lumot beradi.

Vodiy tog' va tog'oldi landshaftlarida sel havfidan aholini ogohlantirivchi geografik terminlar ishtirokida yasalgan nomlar ham uchraydi. Qal'a, Qal'acha kabi qishloqlarni geografik o'rnini tahlil qilish orqali ularni sel yo'liga yaqin joylashganligini ko'rish mumkin. Masalan, Qal'acha – Quvasoy shahri hududida Quvasoy daryosining eski o'zanida, Qal'a qishlog'i So'x daryosi hududida joylashgan. Odatda atrofi baland devor bilan o'ralgan qo'rg'on shunday nomlangan. Bizning tadqiqotlarimizga ko'ra, bunday nom tabiiy jarayonlar, masalan, sel va toshqinga qarshi chora-tadbir ko'ruvchi qishloqlarga nisbatan ham qo'llangan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, turli mualliflarni ma'lumoti bo'yicha Hushyor qishlog'i (So'x tumani) aholisi quyida joylashgan qishloqlarni So'x vodiysiga keladigan sel va toshqinlardan ogohlantirib turganligi uchun shunday nom olgan.

Farg'ona vodiysida ekologik darakchilik funksiyasini bajaruvchi joy nomlari orasida nafaqat qishloq, mahalla, ko'cha nomlari balki, butun boshli tumanlar nomi borligi diqqatga sazovordir. Jumladan, Yozyovon (cho'l, dala, tekislik), Toshloq (qirrali tosh), Qo'rg'ontepa (balanddagi qo'rg'on), Chortoq (chor atrofi tog') kabi tuman nomlari joyning re'lef xususiyatini anglatrsa, Beshariq, Buloqboshi, Jalaquduq, Oltiariq, Oltinko'l, Kosonsoy, Quvasoy, Uchko'prik kabi tumanlar nomi esa bevosita suvlik bilan bog'liq geografik terminlar asosida yaratilganligini ta'kidlash mumkin [5].

Tabiiy resurslarga egalik xissini shakllantirib, ularni muhofaza qilishga yordamlashuvchi guruhlariga kiruvchi geografik terminlarni ijtimoiy ekologik hususiyatigi ko'ra uchta guruhga bo'lish mumkin. Toponimlar tarkibida mintaqaning **ijtimoiy-iqtisodiy** xususiyatlarini bildiruvchi geografik terminlar ham o'z navbatida kishilarning ijtimoiy kelib chiqishi, amalini bildiruvchi, kasb-hunarini, jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy obyekt va jarayonlarni anglatuvchi terminlarga bo'linadi.

Geografik nomlar tarkibida **kishilarning ismi, laqablari, familiyalaridan** kelib chiqadigan terminlarning ham ijtimoiy-ekologik jihatlari mavjud. Ular tabiiy obyektlarga bo'lgan mulkchilik munosabatlari yuzaga kelgan davrlarda shakllanib, tabiiy obyektning kimga tegishli ekanligini belgilab beradi.

Tabiiy resurslarni xususiy mulk sifatida biror bir kishiga, millat, elat yoki urug'-qabilaga, machit, madrasa, maktab, mahalla yoki qishloq aholisiga vaqtincha yoki doimiy foydalanish, umrbod egalik qilish huquqi bilan berilishi arxiv xujjatlaridan tashqari geografik terminlarda ham o'z aksini topadi. Bunday yondashuv kishilarda tabiiy-antropogen obyektlarga nisbatan egalik hissini shakllantiradi, ulardan oqilona, asrab-avaylab foydalanishga chorlaydi. Xususiy mulkka nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish orqali bu obyektlarning tabiiy-ekologik holati saqlab qolinadi. Xalqimizni tabiatni muhofaza qilishning o'ziga xos usullaridan biri sifatida ekologik mazmunga ega bo'lgan geografik terminlar yordamida yaratilgan ekologik geokonseptlarning o'zni katta [6]. Bunday yondashuvda geografik terminlarni 4 ta guruhga bo'lib ko'rib chiqish mumkin.

Birinchi guruhga joy yoki obyektни ulug'lash, mintaqada yashovchi aholi uchun bu tabiat komponentini o'rne va ahamiyati yuqori ekanligini ta'kidlash orqali suv havzalarini, geomorfologik yodgorliklarni muhofaza qilishga yordam beruvchi geografik terminlar asosida yaratilgan **geokonseptlar** kiradi. Ular tarkibida aziz, azim, buyuk, bobo, ota, buzruk, momo, cho'n, sar, ulug', nur, padar kabi so'z va terminlar kiradi. Bunday so'zlar va terminlarni qo'shilishi natijasida geografik nom geokonseptga aylanadi (1-jadval). Bunday murakkab geografik nomlar geokonsept nazariyasida aytilgan barcha talablarga javob beradi, jumladan bunday terminlar qo'shilgandan so'ng toponim o'zining o'zgarmas qiyofasiga, timsoliga ega bo'ladi, masalan Yordonaziz (jarlik hududni oddiy qiyofasidan tashqari qiyofasi borligini eslatadi).

Ekologik geokonsept hosil qiluvchi mahalliy geografik termin va so'zlar

	Muhofaza usullari	Asosiy termin va so'zlar	Ekotoponimlar
1	Joy yoki obyektning ulug'lash, salmog'i, ahamiyati muhimligini ta'kidlash	aziz, azim, buyuk, bobo, ota, buzruk, momo, cho'n, sar, ulug', nur, padar	Yordonaziz, Boboqir, Toshota, Buzruksonto'ra, Momoxon, Cho'ng'ara, Sarmazor, Ulug'tog', Nurzamin, Qadamjoy
2	Joy yoki obyektning ilohiylashtirish, muqaddasligini ochib berish	avliyo, mozor, masjid, yetti, islom, imom jannat, zoxid, ko'k, payg'ambar, oq (safed), sahoba, so'fi, turbat, to'ra, xo'ja, xizir, shayx, shahid, eshon, qalandar	Bo'yog'on Avliyo, Sarmozor, Yermasjid, Go'zalota, Yettibuloq, Imomota, Islomobod, Jannatariq, Zoxidon, Ko'ktosh, Obshirota, Oqer, Turvat, Bog'dod, Xizirobod, Shahidtepa, Qalandarxona
3	G'ayritabiiy, afsonaviy, sirli nomlar bilan joy va obyektlarga kishilar ta'sirini kamaytirish	ajina (jin), alvasti, arvoh, borsakelmas, bedarak, voxim, dev, devgar, devona, jinni, yomon (jomon), zindon, ilonli, kallaxo'r, maxram, changal, pari, shayton, yalong'och, o'ldi, qaroqchi, qatag'on, qirildi	Jinko'cha, Avvasti ko'prik, Borsakelmas Devkar, Jinnito'p, Yomonjar, Zindontepa, Morguzar, Kallaxo'r, Parixona, Shaytonko'l, Yalong'ochota, Xo'jao'ldi, Qaroqchitol, Qizil-ota, Serkaqirildi.
4	Joy va obyektning «egasi»ni, kishilarning orzu-niyatlaridagi nomlar bilan atash	baxt, bog', bahor, boy, boqiy, bunyodkor, bo'ston, gulzor, guliston, go'zal, zafar, navro'z, namuna, obod, oydin, chaman, chorbog', chek	Baxt, Chorbog', Boychek, Bunyodkor, Bo'stonbog', Jahonobod, Cho'liguliston, Zarkent, Namuna, Adirobod, Oydinko'l, Sertut, Chaman, Chorbog'turong'i, Jumaboycheki, Chek Sharif, Chek Jo'rabek

Jadval mualliflar tomonidan tuzilgan.

Bu o'sha joyning kishilik jamoasi uchun ahamiyatga, qadr-qimmatga ega ekanligini o'zining barqaror, o'zgarmas qiyofasi (timsoli) borligini, chegaralari aniq bo'lmasada, doimo tiniq ifodalangan mazmuniy yadrosi borligini bildiradi [7]. Mazkur so'zlar yordamida vodiya Yordonaziz, Satkak aziz, Boboqir, Toshota, Buzruksonto'ra, Momoxon, Cho'ng'ara, Sarmozor, Ulug'tog', Nurzamin, Qadamjoy kabi geografik nomlar yasalgan bo'lib, ular bilan nomlangan obyektlarni saqlanishi boshqa joylarga nisbatan yaxshi ekanligi kuzatiladi.

Farg'ona vodiysida bunday nom bilan atalgan geografik obyektlarni o'rganish natijasida ularni ulug'lash va asrash mahalliy aholi uchun ijtimoiy zarurat ekanligini bilish mumkin. Ko'p hollarda shu ulug'langan tabiiy obyektni (suv havzasi, tog' tizmasi, g'orlar, o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosi) mazkur aholi maskanining hayotidagi o'zni ham yuqori ekanligi kuzatiladi. Masalan, Satkak bulog'i.

Ikkinchi guruhga, joy yoki obyektni ilohiylashtirish, muqaddasligini ochib beruvchi geografik va diniy so'zlar, terminlar yordamida yaratilgan geokonseptlar kiradi. Bunday joylar odatda ilohiylashtirib, ziyoratgoh va qadamjoylarga aylantirilgan. Ana shunday diniy-huquqiy muhofaza usulini qo'llab ona tabiatni asrashga, o'lkamizda shakllangan yuksak etnoekologik madaniyat sifatida qaralmog'i lozim [7]. Farg'ona vodiysida bunday geokonseptlarga misol qilib Arabmozor, Bo'yog'on Avliyo, Sarmozor, Yermasjid, Yettibuloq, Imomota, Islomobod, Jannatariq, Zoxidon, Ko'ktosh, Oqer, Obshirota, Turvat, Bog'dod, Xizirobod, Shahidtepa, Qalandarxona kabilarni keltirish mumkin.

Uchinchi guruhga, g'aroyib, qo'rqinchli, afsonaviy xarakterga ega bo'lgan geografik nomlar va terminlar yordamida yuzaga kelgan geokonseptlar kiritiladi. Bunday geokonseptlar tarkibidagi qo'rqinchli so'zlar kishilarni tabiatga ortiqcha aralashishdan tiyilishlariga sabab bo'lgan. Vodiya Jinko'cha, Alvastiko'prik, Borsakelmas, Devkar, Jinnito'p, Yomonjar, Zindontepa, Morguzar, Kallaxo'r, Parixona, Shaytonko'l, Yalong'ochota, Xo'jao'ldi, Qaroqchitol, Qizil-ota, Serkaqirildi kabi nomlarini eshitgan kishi beixtiyor u joylardan foydalanishda o'zini tiyadi.

To'rtinchi guruhga A.V.Superanskaya [3] taklifi bo'yicha, kishilar joy va obyektlarni o'z orzuniyatlaridagi nomlar bilan atashlari orqali yuzaga kelgan geokonseptlar kiritiladi. Bunday nomlar bilan atalgan obyektlarning vodiya 230 dan ortig'i tadqiqot davomida aniqlandi va ro'yxatga kiritildi, Adirobod, Baxt, Boychek, Bunyodkor, Bo'stonbog', Darafshon, Jahonobod, Cho'liguliston, Chorbog', Zarkent, Namuna, Nurafshon, Oydinko'l, Sertut, Yangi xayot kabi.

Yuqoridagi yo'nalishda olib borgan tadqiqotlarda ekologik geokonsetlar yoki ekologik toponimlar deb ataluvchi guruhga kiruvchi nomlar bilan atalgan joylarda tabiatni nisbatan sof saqlanganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa ikkinchi va uchinchi guruhlariga kiruvchi nomlar bilan atalgan joylarda xalqaro va O'zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan hayvon va o'simliklar dunyosi vakillari saqlanib qolganligi e'tirof etilmoqda [8; 9; 10].

Keyingi izlanishlarda Farg'ona vodiysida kishilarning ta'siri natijasida yo'q bo'lib ketgan yoki sanoqli miqdorda saqlanib qolgan deb hisoblangan o'simlik va hayvon turlari qadamjoy hamda ziyoratgohlar hududida saqlanib qolayotgani dala tadqiqotlari yordamida asoslanib berildi. Taqiqotchi Farg'ona vodiysidagi 260 ortiq qadamjoy va ziyoratgohlarni o'rganib, ularda 20 turdagi noyob hayvonot dunyosi vakillari (asosan baliqlar, qushlar va hashoratlar) saqlanib qolganligini aniqladi.

Butunlay yo'q bo'lib ketgan deb hisoblangan Jannat hashoratxo'ri (Terpsiphone paradisi) Janubiy Farg'onadagi Go'zalota ziyoratgohida (Qatronboshtog' tizmasining shimoliy yonbag'rida), binafsharang qush (Myophonus caeruleus) Obshirota sharsharasi hududida uchramoqda. Shuningdek, birinchi va uchinchi guruhdagi geokonseptlarda o'simlik va hayvonot dunyosiga bo'ladigan hayrixoh munosabat tufayli noyob baliqlar, qushlar, ayrim suv o'tlarini tabiiy holda saqlanib qolishi va ko'payishi kuzatilmoqda. Bu tabiiy obyektlarni ko'pchiligi ma'muriyat tomonidan deyarli qo'riqlanmasligi hisobga olinsa, ularning «nomi» bu obyektlarda diniy-xuquqiy muhofaza vositasi ekanligi namoyon bo'ladi.

XULOSA

Geografik terminlarning mintaqaning tabiiy-ijtimoiy xususiyatlarini o'rganishdagi ahamiyati tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishni tashkil etishda yuqori ekanligini olib borilgan dala tadqiqotlari yana bir karra ko'rsatdi. Mazkur yo'nalishda o'rganilgan qishloqlar aholisi ongida, turmush tarzida nom bilan bog'liq holda tabiatga extiyotkorona munosabatni shakllanganligini ko'rish mumkin. Bunday holat, Shohimardon, Obshirota, Qo'chqorota, So'x, G'ova, Chodak, Yettibuloq, Imomota, Qilichmozor qishloqlarida juda seziladi. Geografik terminlarning boshqa qator

funksiyalari bilan birgalikda ularning ekologik funksiyasini o'rganish va undan amaliy maqsadlarda foydalanish yangi shakllanayotgan lingivistik geografiya yo'nalishi oldidagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қораев С. Ўзбекистон топонимларини ҳосил қиладиган асосий терминлар ва бошқа сўзлар луғати. –Т. : 2001. –176 б.
2. Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов,-М.: Мысль, 1984.653 с.
3. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. –М.: Мысль, 1974. -382 с.
4. Суперанская А.В. Что такое топонимика? –М.: Наука, 1985. -176 с
5. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: // Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти; Наманган давлат университети. – Т. : Фан, 2008. –192 б.
6. Аҳмадалиев Ю.И., Отакулов П.С. Экологик топонимлар– Фарғона: “Classic”, 2022. – 182 бет.
7. Аҳмадалиев Ю.И. Этноэкология (географик жиҳатлари)/ Уқув қўлланма. – Фарғона: “Classic”, 2021. – 286 бет.
8. Ханмагомедов Х.Л., Махачева С.З., Гебекова А.Н. Экологическая топонимика Северного Кавказа // Тез. Докл. Конф. По итогам геогр. Исследований в Дагестане. Вып. 24. Махачкала: Изд-во геогр. о-ва Дагестана, 1993. С. 97- 98.
9. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби: 2-жилдли: Ж.1. Ўсимликлар // Ў.П.Пратов таҳрири остида.–Т. : Чинор ЭНК, 1998, - 336 б.
10. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби: 2-жилдли. Ж.2. Ҳайвонот олами // Ж.Азимов таҳрири остида. – Т. , 2003. –250 б.